



ISSUES OF HUMAN FREEDOM AND PERSONAL INVIOABILITY IN THE WORK “HIDOYA”

Eldorbek Abdurakhmonovich Ganiyev

Independent Researcher at the Institute of State and Law

*Legal consul of the Law Bureau of the University of
Digital Economics and Agrotechnologies*

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: personal inviolability, human rights, protection, freedom, justice, responsibility.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: This article examines the issue of human freedom in the work “Hidoya” in the context of the right to personal inviolability and its essence. The work analyzes human freedom, the right to privacy, its legal guarantees, and its provision through means of protecting personal rights. It also demonstrates the alignment of the work’s provisions with modern legislation and international human rights standards.

“HIDOYA” ASARIDA INSON ERKINLIGI VA SHAXSIY DAXLSIZLIK MASALALARI

Eldorbek Abduraxmonovich Ganiyev

Mustaqil izlanuvchisi, Davlat va huquq instituti

Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti yuridik byuro yuriskonsulti

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: shaxsiy daxlsizlik, inson huquqlari, himoya, erkinlik, adolat, javobgarlik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Hidoya” asarida bayon etilgan inson erkinligi masalasi doirasida daxlsizlik huquqi va uning mohiyati o‘rganilgan. Asarda inson erkinligi, shaxsiy hayotiga daxl qilmaslik huquqi, uning huquqiy kafolatlari va shaxsiy huquqlarni muhofaza qilish vositalari orqali ta’minlanishi tahlil qilingan. Shuningdek, asardagi qoidalarning zamonaviy qonunchilik va xalqaro inson huquqlari standartlari bilan uyg‘unligi ko‘rsatilgan.

ПРОБЛЕМЫ СВОБОДЫ ЧЕЛОВЕКА И ЛИЧНОЙ НЕПРИКОСНОВЕННОСТИ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «HIDOYA»

Эльдорбек Абдурахмонович Ганиев

*Юрисконсульт юридического бюро Университета цифровой
экономики и агротехнологий, самостоятельный исследователь
Института государство и право*

e.ganiyev@udea.uz

Ташкент, Ўзбекистан

О СТАТЬЕ

<p>Ключевые слова: неприкосновенность, защита, свобода, ответственность.</p>	<p>слова: личная права человека, справедливость,</p>	<p>Аннотация: В данной статье исследуется проблема свободы человека в произведении «Hidoya» в контексте права на неприкосновенность личности и его сущности. В работе анализируются свобода человека, право на неприкосновенность личной жизни, его правовые гарантии и обеспечение через средства защиты личных прав. Также показана согласованность положений произведения с современным законодательством и международными стандартами в области прав человека.</p>
---	---	---

Kirish. Inson huquqlari masalalari zamonaviy huquqda ham, islom huquqiy sivilizatsiyasida ham markaziy o‘rin tutadi.

“Hidoya” asari islom huquqining asosiy manbalaridan biri bo‘lib, islom huquqshunosligida Hanafiy mazhabiga oid amaliy huquq normalari tizimli bayon qilingan. Asar faqat ibodat masalalarini emas, balki insonning shaxsiy, mulkiy, oilaviy va protsessual huquqlarini ham keng qamrab oladi.

“Hidoya” asari XII asrda yozilgan bo‘lsa-da, unda insonning mulk, daxlsizlik, adolatli sud, oila, yashash huquqlarini himoya qilishga oid mustahkam normalar mavjud, asarda insonlarning huquq va erkinliklarini ta’minlash va uning kafolatlari manbalar asosida bayon etilgan.

“Hidoya” asarida inson huquqi daxlsizligi masalasi asosiy o‘rin egallaydi. Asarda har bir insonning shaxsiy hayotiga daxl qilinmasligi huquqi ta’kidlanadi. Inson huquqlarini muhofaza qilishning huquqiy kafolatlari va vositalari ham batafsil tahlil qilinadi. Asardagi qoidalar zamonaviy qonunchilik va xalqaro inson huquqlari standartlari bilan uyg‘unligi bilan ajraladi.

“Hidoya” asarida jinoyatchilarning (dindan qaytgan va bog‘iylarning) huquqlari va sodir etilgan qilmishining oqibatlari, ularning meroslari, mavjud tartib-qoidalarni buzilishlari uchun belgilangan jazolar ham bayon etilgan bo‘lib, hozirgi vaqtda olimlar va tadqiqotchilar tomonidan ushbu munosabatlar tadqiq etilgan va davom etmoqda .

Fransuz huquqshunos olimi Reno Sharlning fikricha, islom jinoyat huquqiga ko'ra, har qanday qonunni buzish gunoh hisoblanadi. Shunga binoan qonunbuzarlik oqibatlarini to'g'risida xulosa chiqarganda, qilmishlarning nafaqat huquqiy, balki diniy jihatini inobatga olmoq lozim, deb hisoblaydi .

“Hidoya” asarida insonning kundalik hayotdagi eng muhim ehtiyojlarini ta'minlovchi imkoniyatlar - yashash huquqi, shaxsiy daxlsizlik huquqi, sud jarayonida himoya qilish huquqi, fikrlash, e'tiqod erkinliklari qonuniy yo'l bilan kafolatlangan.

Asarda inson huquqlari va ularni himoya qilish mexanizmlari - qozilik tizimi, vakolatli shaxslar va jamoaviy nazorat usullari bayon etilgan, insonning shaxsiy daxlsizlik huquqi asosiy qadriyat sifatida belgilab qo'yilgan.

Ta'kidlash lozimki, shaxsning daxlsizlik huquqi nima, ushbu tushunchani biz qanday tushunamiz, asarda ushbu huquq tushunchasi qanday bayon etilgan kabi savollar ushbu tadqiqotning asosiy ahamiyatini ochib beradi.

Ushbu tushunchani biz qanday anglaymiz, bu tabiiy savol. Ta'kidlash lozimki, shaxsning daxlsizlik huquqi keng ma'noda insonning hayoti, sog'lig'i, erkinligi, shaxsiy hayoti va boshqa huquqlariga daxl etuvchi biron-bir harakatni o'zboshimchalik bilan sodir etish mumkin emasligini anglatadi.

Ya'ni, asossiz ravishda shaxsning hayoti, sog'lig'i boshqa huquqlariga aralashmaslik tushuniladi.

Shaxsiy hayotni himoya qilishga qaratilgan dastlabki huquqiy normalar Qadimgi Rimda vujudga kelgan bo'lib, O.Robinson va S.Robinsonlarning tadqiqotlariga ko'ra, Qadimgi Rimda biror shaxs boshqa bironing sha'ni va qadr qimmatini kamsituvchi tuhmat yoki uni sharmanda qiladigan sirlarini bayon qilib she'r yozgan va uni aytgan bo'lsa, unga nisbatan o'lim jazosi tayinlangan .

J.Xolt, G.Garnett, J.Xadsonlarning qayd etishicha, shaxsiy hayot daxlsizligining rivojlanishdagi ulkan qadam 1215-yilda Angliyada qabul qilingan “Erkinlikning Buyuk Xartiyasi” bo'lib, unda shaxsiy daxlsizlik inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida keltirib o'tiladi .

Bundan keyingi bosqich inson huquqlarini qonuniy tan olish yo'lidagi

1678-yilgi “Xabeus Korpus” akti hisoblanadi. Jumladan, shaxsiy hayot daxlsizligi, aybsizlik prizumsiyasi kabi inson huquqlari uchun muhim bo'lgan huquqlarni o'zida aks ettirgan .

Islom huquqshunosligida shaxsning hayoti, sha'ni, tani va qadr-qimmatini daxlsiz deb e'tirof etiladi. Bu mavzu “Hidoya” asarida muhim mavqega ega bo'lib, Burhonuddin Marg'inoniy insonning zulmdan himoya qilinishi, asossiz ayblanmasligi, jazo qo'llashda adolat va ehtiyotkorlik mezonlarini huquqiy me'yorlar sifatida belgilaydi.

“Hidoya” asarida huquqiy masalalarning yechimi dastlab Sahobalar, mujtahid olimlar va Movaraunnahrdan chiqqan yirik fiqh olimlari fikrlarining bayoni va unga boshqa mualliflar e’tirozlari yoki qo‘shilishlarini bayon etish yo‘li bilan berilgan.

“Hidoya” asarida shaxsiy daxlsizlik doirasidagi qoidalar keng yoritilgan. Asarda hozirgi ma’noda “shaxsiy daxlsizlik” (inviolability of the person) atamasi ishlatilmasa-da, qoidalar orqali uning asosiy mohiyati va ahamiyati bayon qilingan. O‘rganuvchi va tadqiqotchida ushbu qoidalarni to‘g‘ri tushunishi va talqin etishda bilim va ko‘nikmalar muhim hisoblanadi va xushyorlik talab etiladi.

Asarda inson sha’ni, qadr-qimmatini uning huquqlari manbalar asosida e’tirof etiladi, hattoki bir shaxsning sha’niga salbiy so‘z aytish, ruxsatsiz xonadonga kirish qat’iy ta’qiqlanadi. Albatta, ushbu holat shaxsning daxlsizlik huquqi bilan bevosita bog‘liq.

Kimki bironi nasabini inkor qilib: “Sen otangning o‘g‘li emassan” desa, ushbu kishiga had jazosi qo‘llanadi. Ushbu qoidadan anglash mumkinki, inson sha’ni va qadrini kamsitish uchun jazo belgilangan.

Ta’kidlash lozimki, “Hidoya” asarida insonning yashash joyi va mulki afzal, xavfsiz ekanligi ta’kidlanadi, bironing roziligisiz uning uyiga kirish holati tajovuz hisoblanadi. Bu hukm Qur’on Karim oyatlari va hadislarga suyangan holda berilgan. Asarda ushbu prinsiplar insonning hayoti davomida va oilada, jamiyatda yuzaga keladigan o‘zaro munosabatlar asosida bayon etiladi.

“Hidoya” asarida shaxsga tajovuz qilish, erkin harakatiga to‘sqinlik qilish qattiq taqiqlanadi, yo‘lto‘sarliklar qoralanadi va ushbu holatlar uchun jazolar belgilangan.

Shuningdek, asarda qayd etilgan qoidalar orqali noqonuniy kuzatuv olib borish, xabardorlik (poylash), shaxsiy ma’lumotlarni yashirin o‘rganish va shubha bilan ayblashdan qaytariladi.

Bundan tashqari asarda insonning shaxsiy nomusi va obro‘-e’tiborning daxlsizligiga e’tibor qaratilgan bo‘lib, shaxsiy obro‘ va nomus insonning huquqi sifatida qaraladi, sog‘ligi va obro‘-e’tiborga putur yetkazish jazoga loyiq hisoblanadi va qattiq jazoga sabab bo‘ladi. Bu qoidalar insonning sha’ni va shaxsiy qadr-qimmatini daxlsizligiga oid muhim himoyadir.

Islom huquqida mulk shaxsning shaxsiy hududi sifatida ko‘riladi. Asarda insonning mol-mulk daxlsizligi – shaxsiy sohaning bir qismi hisoblanadi. Asarda uy-joyga, mulkka aralashish, molni zo‘rlik bilan olish, ruxsatsiz tintuv olib borish qat’iy taqiqlangan.

Asarda tibbiy, oilaviy va ma’naviy sirlarni himoya qilish bo‘yicha qoidalar mavjudligini o‘quvchi mohiyatan va tahlillar asosida anglashi mumkin.

“Hidoya” asarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri tibbiy sir haqida bo‘lim bo‘lmasa-da, umumiy qoida bayon etilgan. Asarda sir saqlash majburiyligi, sirni oshkor qilish zarar keltirsa, harom hisoblanishi tushuntirilgan. Huquqiy masalalarda ham sirni buzish (masalan, nikoh, taloq, gunohni fosh qilish) shariatda aksar hollarda man etiladi.

Asarda jismoniy daxlsizlik (badanga tajovuzdan himoya) masalalariga ham e'tibor qaratilgan, urish, majburlash, zo'rlik qilish, qonunsiz jazo qat'iy taqiqlangan, inson tanasiga zo'ravonlik qilish, uni haqoratlash, asossiz jazo berish, joniga qasd qilish og'ir jinoyat ekanligi qayd etiladi.

Odamlar dillariga qo'rquv soladigan munkar ishni sodir etganlari uchun jinoyatchilarga ta'zir (darra urish singari qo'shimcha jazo) ham belgilangan .

Asarga ko'ra, inson tanasi muqaddas va hurmatlidir. Hech bir shaxs boshqasiga yoki o'ziga jismoniy ozor yetkazishga haqli emas. Jazolar faqat shariatda belgilangan hollarda va to'liq isbot va dalillar taqdim etilgandan keyin qo'llanadi. Bu jarayonlar insonning shaxsiy daxlsizligiga oid asosiy qoidalar sifatida bayon etilgan.

Shaxsiy daxlsizlik huquqi buzilishi natijasida yetkazilgan oqibatlar javobgar shaxslardan qoplanishining mohiyati, ya'ni javobgarklik masalasi asarda bayon etilgan.

"Hidoya" asarida "Hadlar" (Jinoyatlar) deb nomlangan alohida bo'lim bo'lib, ushbu bo'limda jinoyat tushunchasi va uning turlari, huquqiy qonun-qoidalar bayon etilgan.

"Jinoyatlar bo'limi"da qotillik, ya'ni inson joniga tajovuz qilishning 5 ta ko'rinishlari haqida so'z boradi . Ular: qasddan, qasdgga o'xshash, xato qilib (ehtiyotsizlik oqibatida), xatoning o'rnida va biror sabab bilan qilingan qotilliklardan iborat. Marg'inoniy ularning sabab va ko'rinishlarini birma-bir sharhlab beradi. Ularning eng og'ir oqibatlisi qasddan sababsiz bir jonga qasd qilish bo'lib, bu Qur'on va sunnat bilan harom qilingani va bunday qotillik sodir etishning oqibati jahannam bo'lishi ta'kidlanadi .

Reno Sharlning ta'kidlashicha, musulmon huquqshunoslari yettinchi asrdan boshlab musulmon axloqini tuzatishga oid jazolardan had va ta'zir jazolarini qo'llash orqali jazolarni individuallashtirish, ya'ni jinoyatning turiga qarab, har bir jinoyatchiga alohida-alohida jazo choralarini belgilash tamoyiliga suyangan edilarki, bu turdagi qoidalar Yevropa qonunchilik tizimlariga XVI asrga kelib kiritila boshlagan .

Musulmonlar mamlakatlarida esa bunday tizim allaqachon islom huquqi normalari bilan tartibga solingan. Bu normalar zamonaviy qonunchilik mazmunida ham o'z aksini topgan.

Tadrijiy rivojlangan zamonaviy huquq tizimida ham shunday, "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" (1948) va davlatlarning milliy konstitutsiyalari va qonun hujjatlarida inson huquqlari kafolatlangan.

Shaxsiy hayot daxlsizlik huquqi so'nggi bir necha yil ichida xalqaro inson huquqlari kontekstida tez-tez muhokama qilinib kelinadigan va xalqaro odat huquqi sifatida e'tirof etiladigan huquqqa aylandi. Ushbu huquqning konstitutsiyaviy asoslarini yaratish va kafolatlarini ta'minlash talab darajasiga ko'tariladi. Xususan, 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 3-moddasida har kim shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega ekanligi va

12-moddasida “Hech kim birovning shaxsiy va oilaviy hayotiga o‘zboshimchalik bilan aralashishi, uning uy-joyi daxlsizligiga, yozishmalaridagi sirlarga yoki uning nomusi va obro‘sigga o‘zboshimchalik bilan tajovuz qilishi mumkin emas. Har bir inson mana shunday aralashuv yoki tajovuzdan qonun tomonidan himoya qilinish huquqiga ega” ekanligi belgilangan.

Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining halqaro huquqiy kafolatlarining ushbu hujjatda belgilanishi konstitutsiyaviy kafolat ta’minlashning dastlabki bosqichini belgilab berdi. Ushbu hujjatni qabul qilgan davlatlarning deyarli barchasida shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi konstitutsiyaviy normalar bilan kafolatlangan.

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish lozimki, yurtimizda inson huquqlari kafolatlangan, jumladan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida shaxsiy daxlsizlik huquqi muhofaza etilgan bo‘lib, unga ko‘ra, har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas. Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko‘ra yo‘l qo‘yiladi. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas. Shaxsni ushlab chog‘ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart.

“Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilanadiki, “Har bir inson yashash, erkinlik va shaxsiy xavfsizlik huquqiga ega. Asossiz qamoq, azob-uqubat, zo‘rluk taqiqlangan. Sudsiz jazo berish mumkin emas.

Yuqoridagilarga ko‘ra, ikki tizim ham insonning jismoniy daxlsizligini asosiy huquq sifatida tan oladi va mustahkamlaydi.

Asar shaxsiy daxlsizlik huquqini mustahkamlash va himoya qilishda tarixiy va nazariy asos sifatida muhim ahamiyatga ega.

“Hidoya”da isbotlash tartiblari diniy-huquqiy asosda, zamonaviy huquqda esa protsessual qonunchilik asosida joriy etilgan.

Ta’kidlash lozimki, bu qoidalar inson daxlsizligini ta’minlashda asosiy qadriyat sifatida namoyon etiladi.

“Hidoya” asarida belgilagan kafolatlar shaxsiy daxlsizlikni himoya qilinishining huquqiy asosidir.

Jinoyatlar va ularning oqibatlari, qotillik va zararlar uchun jazo belgilanishi orqali shaxs daxlsizligi himoya qilinadi.

Burhoniddin al-Marg‘inoniy muallif sifatida insonning sha’ni va qadr-qimmatiga nisbatan tajovuzlarni qat’iy taqiqlaydi va qorqlaydi hamda ular uchun jazo belgilanganligini qayd etadi.

“Hidoya”dagi normalar Islom huquqshunosligida va zamonaviy huquq tizimida inson huquqlari tushunchasi bilan uyg‘unlashadi.

Shuningdek, inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va xalqaro standartlar asosida ham shaxsiy daxlsizlik huquqi himoya qilinadi, bu esa “Hidoya” asaridagi prinsiplarning zamonaviy qonunchilikka implementatsiyasini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси
2. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси
3. Бурҳонуддин Марғинович. Ҳидоя (шарҳ бидоятул мубтади) Муомалат қисми 3-жилд, 192-бет. -Т.: “Hilol-Nashr” Т.: 2021.
4. Одил Қориев. “Бурҳонуддин ал-Марғинович - ҳуқуқшунос” / «Шарқшунослик» тўплами. Т., 1993 й.
5. Хидоя. Комментарий мусулманского права. Отв. ред. и авт. вступ. стати и комментарий А.Саидов. Ташкент: Ўзбекистон, 1994.
6. Тошқулов. Ж., Юсупова Н., Бекмирзаев И., Сарсенбоев О., Масаидов С. Ислом ҳуқуқшунослиги. Ўқув кўлланма. – Т.; Тошкент ислом университети нашриёт матбаа бирлашмаси, 2014.
7. Ўзбекистон Фанлар академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти кўллезмалар фондида №.Р.9445 рақам остида сақланаётган «Викоят арривоя» қоблэзма нусхаси. Б.1.
8. J.Toshqulov. “Burhanuddin al-Marghinani on the attitude of the islamic state towards apostates and rebels”. (Web of Humanites: Journal of Social Science and Humanitarian Reserch), Volume 3, Issue 6, June - 2025
9. Шарл Рено. Мусульманское право. - Москва: Издательство иностранной литературы, 1959.-Б. 47
10. Robinson O. F., Robinson C. F. The criminal law of ancient Rome. – London : Duckworth, 1995. – С. 32–35.
11. Holt J. C., Garnett G., Hudson J. Magna carta. – Cambridge University Press, 2015.
12. Hoepman J. H. Privacy design strategies //ICT Systems Security and Privacy Protection: 29th IFIP TC 11 International Conference, SEC 2014, Marrakech, Morocco, June 2-4, 2014. Proceedings 29. – Springer Berlin Heidelberg, 2014. – С. 446-459.
13. Бурҳонуддин Марғинович. Ҳидоя (шарҳ бидоятул мубтади) Муомалат қисми 3-жилд, 192-бет. -Т.: “Hilol-Nashr” Т.: 2021.
14. Ф.Мадиев. Шахсий ҳаёт дахлсизлиги ҳуқуқининг конституциявий кафолатларини генезиси. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8324947>

15. J.Toshqulov. “Burhanuddin al-Marghinani on the attitude of the islamic state towards apostates and rebels”. (Web of Humanites: Journal of Social Science and Humanitarian Reserch), Volume 3, Issue 6, June - 2025
16. Шарл Рено. Мусульманское право. - Москва: Издательство иностранной литературы, 1959.-Б. 47
17. Robinson O. F., Robinson C. F. The criminal law of ancient Rome. – London : Duckworth, 1995. – С. 32–35.
18. Holt J. C., Garnett G., Hudson J. Magna carta. – Cambridge University Press, 2015.
19. Hoepman J. H. Privacy design strategies //ICT Systems Security and Privacy Protection: 29th IFIP TC 11 International Conference, SEC 2014, Marrakech, Morocco, June 2-4, 2014. Proceedings 29. – Springer Berlin Heidelberg, 2014. – С. 446-459.
20. Б.Ботиров “Бурхониддин Марғинонийнинг “Ал-Ҳидоя” асарида шахсий ҳуқуқ ва эркинликларнинг мазмуни” Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal Impact Factor Advanced Sciences Index Factor